

Murodova Kamolaxon Shuhratali qizi Namangan davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi E-mail: kamola.bahor@gmail.com Tel: +998906944090

1-4 SINIF O'QUVCHILARI UCHUN TO'GARAK MODEL: KASB TANLASHGA TAYYORLOVCHI DIDAKTIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini to'garak mashg'ulotlari orqali kasb-hunarga yo'naltirishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Didaktika, rivojlanish psixologiyasi va karyera pedagogikasiga tayangan holda, to'garak faoliyatining pedagogik salohiyati, amaliy ahamiyati va o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlashda tutgan o'rni tahlil qilinadi. Eksperimental yondashuvlar, loyiha asosida ta'lim, baholash mezonlari va ijtimoiy hamkorlik kabi usullar asosida metodik tavsiyalar taklif etiladi. Tadqiqot natijalari o'qituvchilar va metodistlar uchun amaliy qo'llanma vazifasini bajaradi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim; to'garak faoliyati; kasb-hunarga yo'naltirish; pedagogik salohiyat; loyiha asosida ta'lim; amaliy metodika; ijtimoiy hamkorlik.

Муродова Камола Шухратали кизи Наманганский государственный педагогический институт

независимый исследователь kamola.bahor@gmail.com Tel: +998906944090

МОДЕЛЬ КРУЖКОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ 1-4 КЛАСОВ КАК ДИДАКТИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПОДГОТОВКЕ К ВЫБОРУ ПРОФЕССИИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретико-методологические основы профориентации учащихся начальных классов через кружковую деятельность. На основе дидактических подходов, психологии развития и педагогики карьеры анализируется педагогический потенциал кружков, их практическое значение и роль в выявлении интересов учащихся. Предлагаются методические рекомендации с использованием

экспериментального подхода, проектного обучения, критериев оценки и социального партнёрства. Результаты исследования могут служить практическим пособием для учителей и методистов.

Ключевые слова: начальное образование; кружковая деятельность; профориентация; педагогический потенциал; проектное обучение; практическая методика; социальное партнёрство.

Murodova Kamola Shuhratali qizi Namangan State Pedagogical Institute
independent researcher kamola.bahor@gmail.com Tel: +998906944090

A CLUB AVTIVITY MODEL FOR GRADES 1-4 AS A DIDACTIC AND PSYCHOLOGICAL APPROACH TO CAREER CHOICE PREPARATION

Abstract: This article explores the theoretical and methodological foundations of vocational orientation for primary school students through extracurricular club activities. Drawing on didactics, developmental psychology, and career pedagogy, it analyzes the pedagogical potential of clubs, their practical significance, and their role in identifying students' interests. The paper presents methodological recommendations based on experimental approaches, project-based learning, assessment criteria, and social partnership. The findings serve as a practical guide for teachers and educational methodologists.

Keywords: primary education; extracurricular clubs; vocational orientation; pedagogical potential; project-based learning; practical methodology; social partnership.

KIRISH(INTRODUCTION)

Boshlang'ich ta'lim bosqichi — inson hayotidagi eng muhim poydevor davri bo'lib, unda bolaning umumiy bilimlari, qiziqishlari va kelajakdagi ijtimoiy rolini belgilovchi asosiy me'yorlar shakllanadi. Ayniqsa, 1–4-sinf o'quvchilari jismonan va ruhonan tez rivojlanayotgan, yangi faoliyat turlarini sinab ko'rishga doimo tayyor bo'lgan davrni boshdan kechiradilar. Shu sababli, maktab to'garaklari (sekskursiya, klub, studiya) orqali bolalarni turli kasbhunar yo'nalishlariga

maqsadli yo'naltirish nafaqat ularning individual imkoniyatlarini aniqlash va rivojlantirish, balki jamiyat va mehnat bozori talablariga moslashuvchan va tanqidiy fikrlaydigan fuqarolarni tarbiyalash imkonini ham yaratadi. To'garaklar muhitida bolaning ijodiy salohiyati va amaliy ko'nikmalari uyg'un rivojlanadi: masalan, qo'l mehnati, texnikaviy qurilmalar tuzish, san'at va dizayn, robototexnika yoki dasturlash kabi turli yo'nalishlarni erta bosqichda sinab ko'rish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchida kasb tanlashda bevosita amaliy tajriba asosida xabardor qaror qabul qilishga yo'l ochadi. Shuningdek, to'garaklar jamoaviy hamkorlik, muammolarni birgalikda hal etish va liderlik ko'nikmalarini shakllantirish uchun qulay platforma bo'lib, bolalarga ijtimoiy faollikni kuchaytirish va o'zini tanitish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI(LITERATURE REVIEW)

Ta'lim jarayonida kasb va to'garak mashg'ulotlari tushunchalarining integratsiyalashuvi talim oluvchining kasbiy kompetensiyalarini aniqlash va erta yo'naltirish uchun muhim omil hisoblanadi. Maktab o'qituvchilari uchun boshlang'ich ta'lim bosqichda sinfdan tashqari mashg'ulot(to'garak)ni tizimli va maqsadli yo'lga qo'yish, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash, shuningdek, kasbhunar yo'naltirish zarur. Maktab o'quvchilarini darsdan bo'sh vaqtlarida to'garaklarga jalb etish orqali kasb-hunarga yo'naltirishning samaradorligi yuqori. F.A.Umarova o'zining "Maktab o'quvchilarini darsdan bo'sh vaqtlarida to'garaklarga jalb etish orqali kasb-hunatga yo'naltirish" maqolasida to'garaklarning kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rnini va ularning o'quvchilarni kasb tanlashidagi roli muhokama qilinadi.[6] Bo'ronova N.Uning "Texnologiya darslarida interfaol metodlar orqali o'quvchilarni kasbga yo'naltirish" nomli maqolasida texnologiya fanidan interfaol metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning kasbga yo'naltirish jarayoni tahlil qilinadi. "Aqliy hujum" va "Klaster" kabi metodlarning samaradorligi ko'rsatilgan.[7] F.R.Abduraximova, Z.E.Abduraximova "Kasb psixologiyasi" darsligida kasb-hunarga yo'naltirish

haqida alohida boblar mavjud. Darslikda to'garaklarda qo'llash mumkin bo'lgan amaliy usullar berilgan. [3] Erik Eriksonning "Rivojlanish bosqichlari", Howard Gardnerning "Ko'p aqliy intellekt" nazariyalari(multiple intelligences) boshlang'ich maktab yoshidagi qobiliyatlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. MDH mamlakatlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini to'garaklar orqali kasb-hunarga maqsadli yo'naltirish texnologiyalarining nazariy-metodik asoslari L.V.Bulanova, I.V.Velichko, O.M.Voronina, M.P.Voyushina, Ye.V.Gadustova, M.R.Lvov, V.G.Goretskiy, O.V.Sosnovskaya, Ye.L.Melnikova, T.N.Serebrennikova, S.M.Sivakova, N.F.Talizina, A.M.Fyodorova, Ye.V.Golovneva, V.G.Chetvertnix, S.V.Yurkinalar boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish metodlarini ichlab chiqqanlar, bevosita ta'limida foydalanish yo'llarini izlaganlar. Biroq Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarini kasb-hunarga maqsadli yo'naltirish texnologiyasi (to'garaklar misolida) ilmiy talqin etilmaganligi, alohida tadqiqot muammosi sifatida o'rganilmaganligi mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI(METHODOLOGY)

Bugungi kunda o'qituvchilarning global o'zgarishlar sharoitida maktab yoshidagi bolalarga erta kasbiy yo'naltirish berish masalalariga e'tibori kuchaygan. Shu bilan birga, o'quvchilarning kasbiy qaror qabul qilish xulqatvori, qobiliyat va qiziqishlarining pedagogik ta'sirchan tizimda shakllantirilishi ancha murakkab muammo sifatida qolmoqda. To'garaklar esa bunday murakkablikni yengillashtirish, bolaning individual qiziqishlarini tez va aniq aniqlash imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini to'garaklar orqali kasbhunarga yo'naltirishning nazariymetodologik asoslari soha olimlari va amaliyotchilarining ilg'or tajribalaridan kelib chiqqan holda o'rganiladi hamda samarali metodik ko'rsatmalar taklif etiladi. Tadqiqot jarayonida eng avvalo, adabiyotlar tahlilidan foydalangan holda mavzuni o'rganib chiqildi. Emperik tadqiqot hamda

eksperimental tadqiqot usullari yordamida ma'lumotlarni yig'ilda va tahlil qilindi, metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA(RESULTS AND DISCUSSION)

Kasb atamasi insoniyat jamiyatida qadimdan mavjud bo'lib, u ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish va shaxsning o'zini anglash jarayonlarida muhim o'rin tutadi. Har bir shaxs o'zining shaxsiy qiziqishlari, qobiliyati va ehtiyojlariga mos holda kasb tanlaydi hamda bu faoliyat orqali hayotida o'z o'rnini topib boradi. Zamonaviy ta'lim va mehnat bozori sharoitida kasb atamasi adabiyotlarda izohlari berib o'tilgan.

“Kasb — bu inson tomonidan doimiy yoki asosiy faoliyat turi sifatida egallangan va maxsus bilim, malaka hamda ko'nikmalarni talab qiladigan mehnat faoliyatidir” [2]

“Kasb — bu insonning mehnat faoliyati turi bo'lib, u kasbiy tayyorgarlik, ma'lum bir malaka va o'z faoliyati uchun javobgarlikni talab qiladi” [3]

To'garak mashg'ulotlari — bu ta'lim muassasalarida darsdan tashqari vaqtda o'quvchilar (yoki talabalar)ni qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlari asosida ma'lum bir soha, fan yoki faoliyat turi bo'yicha chuqurroq bilim, ko'nikma va malaka berish hamda iqtidorini rivojlantirish maqsadida tashkil etiladigan tashkiliy-amaliy faoliyat shaklidir. [2]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirish mehnat ta'limining tarkibiy qismidir. Bu jarayon muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, maktab o'quvchilarida mehnatsevarlik shakllanadi. Mehnatsevarlik mehnat tarbiyasi, o'qitish va kasbga yo'naltirish natijasi bo'lib, shaxsiy fazilzt sifatida ishlaydi. Kasb-hunarga yo'naltirish faoliyati (rolli va didaktik oyinlar, ijtimoiy foydali mehnat, ota-onalar ishlaydigan korxonalarga ekskursiyalar, oilaviy bayramlar va boshqalar) yordamida mehnatning inson va jamiyat hayotidagi o'rnini haqida tushuncha shakllanadi. Kasb tanlashga munosabat bildiriladi, kelajak kasbiga qiziqish rivojlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish

dars va asosan tarsdan tashqari mashg'ulotlar(to'garaklar)orqali amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini to'garaklar orqali kasb-hunarga yo'naltirish — bu o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarida tashkil etilgan turli to'garaklarda (fan-texnika, san'at, hunarmandchilik va boshqalar) qatnashishi orqali ularning kasb va hunarga bo'lgan qiziqishini erta yoshdan shakllantirish, mehnatga ijobiy munosabat va dastlabki kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonidir. **Bu jarayonning mohiyati shundaki,** O'quvchilar o'z qiziqishlariga mos to'garaklarda qatnashadi, to'garaklarda kasb-hunarga oid boshlang'ich bilim, amaliy ko'nikma va tasavvurlarga ega bo'ladi, mehnatga mehr va kasbga hurmat, ijodiy va mustaqil fikrlash, jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi va rivojlanadi, o'quvchi o'z qobiliyatini erta aniqlaydi, o'qituvchi yordamida qobiliyatlari ustida ishlaydi. Bu — bolalarning maktabda o'qib yurgan davrida darsdan tashqari tashkil etiladigan to'garak mashg'ulotlari orqali turli kasb-hunarlar bilan tanishib, kelajakda ongli ravishda kasb tanlashga tayyor bo'lib borishidir. Shunday ekan pedagog bu jarayonni to'g'ri tashkillashtirishi zarur. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar(to'garaklar) avvaldan ham mavjud bo'lgan. O'qituvchi samaradorlikka erishish va o'quvchini kasb-hunarga maqsadli yo'naltirish uchun o'z to'garak faoliyati xaritasini tuzib olishi zarur. Bu xarita to'garak faoliyatini boshlashgacha bo'lgan davrdagi amalga oshiriladigan ishlar bo'lib, o'quv mashg'uloti shu asosida tashkillashtiriladi. Xaritaning ketma-ketligi quyidagicha:

1. To'garaklar tizimining imkoniyatlarini o'rganish;
2. Kasb-hunarga yo'naltiruvchi uslubiy yondashuvlarni aniqlash;
3. To'garaklar faoliyatining pedagogik salohiyatini o'rganish;
4. Amaliy tavsfiyalar ishlab chiqish;
5. To'garak faoliyatini yo'lga qo'yish.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, to'garak tizimi — bu o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy hamda intellektual rivojlanishlari uchun keng pedagogik imkoniyatlar yaratadigan sinfdan tashqari faoliyat shakllaridan biri. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar (to'garaklar)ni tashkil qilish tizimining pedagogik imkoniyatlari (Ranglar, qo'l mehnati, texnika dizayni, robototexnika kabi maxsus to'garaklar) mavjud bo'lib ular orqali o'quvchilar o'z istiqbollarini sinab ko'radilar. Amaliy tajriba jarayonida o'quvchilar nazariy bilimni qo'l mehnati, ijodiy vazifalar orqali mustahkamlaydi. Jamoaviy ishlarda birgalikda muammolarni hal qilish ko'nikmasi, liderlik qobiliyatlari rivojlanadi. O'qituvchi bu jarayonda har bir bolaning imkoniyatini ro'yobga chiqarishda yordam beradi va quyidagi yondashuv amalga oshiriladi.

O'quvchilarni kasbhunarga yo'naltirishning uslubiy yondashuvlari (1-jadval)

Eksperimentaltadqiqiy yondashuv:	Sinf jamoasida kichik loyiha ishlarni tashkil etish (masalan, “Kic hik me'mor”, “O'zim yasagan robot”).
Loyiha asosida tashkillashtirilgan ta'lim	O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, muayyan kasbhunarga oid loyiha ustida birgalikda ishlaydi. Loyiha yakunlangandan so'ng natijalar maktab jamoatchiligiga taqdim etilishi mumkin.
Steklangan (mantiqiy bog'langan, bosqichma-bosqich o'rgatiladigan) modullar	Har bir modul ma'lum bir kasbhunarga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirib boradi (masalan, materialshunoslikdan boshlang'ich tushunchalar, oddiy uskuna sozlash kabi).
Refleksiya (munosabat)va	O'quvchilardan har bir mashg'ulot

baholash	yakunida o‘z ishiga baho berish va qilingan ish yuzasidan hisobot yozish talab qilinadi, bu qaysi kasbhunarga qiziqishini aniqlashda yordam beradi.
-----------------	---

O‘qituvchi to‘garak faoliyati kontekstida pedagogik salohiyatni tashkil etuvchi asosiy komponentlarni (masalan, motivatsiya, ijodkorlik, shaxsiy o‘shish, hamkorlik ko‘nikmalari) belgilashi kerak. O‘zbek va chet el adabiyotlaridagi to‘garak (klub, seksiya, krujok) faoliyatining tarixi, pedagogik vazifalari va samaradorligi bo‘yicha ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlarni saralash va o‘z pedagogik jarayoniga moslarini joriy qilishi mumkin. Shu yo‘nalishdagi ilg‘or pedagogik texnologiya va metodlarni aniqlab, ularning salohiyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish yanada samaralidir.

XULOSA. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini to‘garaklar orqali kasbhunarga yo‘naltirish — bu uzoq muddatli, tizimli yondashuvni talab qiluvchi pedagogik jarayon. Nazariymetodologik asoslarda didaktika, rivojlanish psixologiyasi va karyerapedagogika tushunchalari uyg‘unlashgan holda amalga oshiriladi. Amaliyotda esa loyiha asosida ta’lim, eksperimental yondashuv va ijtimoiy hamkorlik usullari samarali ekanligi namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuvlarning amaliy tavsiyalari o‘qituvchilarga dastlabki to‘garak faoliyatini tizimli tashkil etishga ko‘maklashadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5847-son Farmoni.- <https://lex.uz/docs/-4545884>
2. A.Madvaliyev “O‘zbek tili izohli lug‘ati” “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” davlat nashryoti, Toshkent, 2010-yil, 2-jild, 325-bet

3. F.R.Abduraximova, Z.E.Abduraximova “Kasb psixologiyasi”, Toshkent-2018, 11-b
4. Q. Xolmatov “Darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonda o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish texnologiyasi”: Dissertatsiya ishi ped.fan.nom. - Guliston: GulDU, 2004. -159 b.
5. Umarov S.B. Umumiy o‘rta talim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish texnologiyasi: dissertatsiya.ped.fan.nom. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU,2005. -159 bet.
6. F.A. Umarova “Maktab o‘quvchilarini darsdan bo‘sh vaqtlarda to‘garaklarga jalb etish orqali kasb-hunarga yo‘naltirish” Educational Research in Universal Sciences(ERUS.uz) 2023 y, 648-653-betlar
7. N.U.Bo‘ronova “Texnologiya darslarida interfaol metodlar orqali o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish” Tadqiqotlar. Uz platformasi 2024y, 36-son, 25-27-betlar
8. www.ziynet.uz